UDK: 94(575.171)"08/11":339.5(091)

IX–XIII asrlarda Xorazm vohasi hunarmandchiligi va savdo tizimi: Yozma manbalar va arxeologik materiallar asosida

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Ijtimoiy- iqtisodiy fanlar fakulteti Tarix kafedrasi

Stajyor o‘qituvchi

Sabirov Mansur Ruzmetovich

Mansur1985@gmail.com

https://orcid.org/0009-0009-3970-5861

+998974515777

Annotatsiya: Ushbu tezisda IX–XIII asrlarda Xorazm vohasining iqtisodiy va madaniy hayotini belgilab bergan hunarmandchilik tarmoqlari hamda xalqaro savdo aloqalarining yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar tahlili yoritilgan. Mintaqaning Buyuk Ipak yo‘li tranzit tizimidagi o‘rni manbashunoslik nuqtayi nazaridan baholangan.

Kalit so‘zlar: Xorazm, hunarmandchilik, savdo aloqalari, Buyuk Ipak yo‘li, yozma manbalar, arxeologik yodgorliklar, Sadvar, Jigarband.

Аннотация: В данных тезисах на основе анализа письменных источников и археологических исследований освещаются ремесленные отрасли и международные торговые связи, определившие экономическую и культурную жизнь Хорезмского оазиса в IX–XIII веках. В исследовании сведения арабо-персидских географических сочинений сопоставляются с материальными артефактами, обнаруженными на памятниках оазиса (Садвар, Джигербент). С источниковедческой точки зрения оцениваются роль региона в транзитной системе Великого шелкового пути, а также вопросы урбанизации и обеспечения безопасности торговли в эпоху Хорезмшахов.

Ключевые слова: Хорезм, ремесло, торговые связи, Великий шелковый путь, письменные источники, археологические памятники, Садвар, Джигербент, урбанизация.

Abstract: This thesis analyzes the handicraft sectors and international trade relations that defined the economic and cultural life of the Khwarazm oasis in the 9th–13th centuries, based on the study of written sources and archaeological data. The research conducts a comparative analysis of Arabic and Persian geographical works alongside material artifacts discovered from regional sites such as Sadvar and Jigarband. The strategic position of the region in the transit system of the Great Silk Road, as well as the dynamics of urbanization and trade security during the Khwarazmshahs era, are evaluated from a source-study perspective.

Keywords: Khwarazm, handicrafts, trade relations, Great Silk Road, written sources, archaeological sites, Sadvar, Jigarband, urbanization.

Kirish

Xorazm vohasi o‘zining ko‘p ming yillik davlatchilik tarixi va geografik joylashuvi bilan Markaziy Osiyo iqtisodiy tizimida strategik ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, IX–XIII asrlar boshida, mintaqada urbanizatsiya jarayonlarining jadallashishi va qudratli Xorazmshohlar davlatining yuzaga kelishi hunarmandchilik tarmoqlari va tashqi savdo munosabatlarining misli ko‘rilmagan darajada yuksalishiga zamin yaratdi. Qadimgi va o‘rta asr yodgorliklaridagi hunarmandchilik sohalariga oid topilmalar Xorazmning boy madaniyati va iqtisodiyotidan dalolat beruvchi asosiy moddiy manbalardir. Biroq, ushbu keng qamrovli mavzu bugungi kunga qadar maxsus monografik tadqiqot obyekti sifatida to‘laqonli o‘rganilmasdan kelmoqda.

Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy bilishning obyektivlik, davriylik va tizimlilik prinsiplari tashkil etadi. Ish jarayonida o‘rta asr arab va fors tillaridagi geografik hamda tarixiy asarlar ma’lumotlarini o‘rganishda manbashunoslik qiyosiy tahlili, moddiy madaniyat namunalarini baholashda arxeologik-etnografik jarayonlari hamda karvon yo‘nalishlarini aniqlashda tarixiy-geografik modellashtirish metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi.

ASOSIY QISM:

Mavzuga oid yozma manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Xorazm savdo markazlari va iqtisodiy salohiyati haqida Istaxriy, Maqdisiy, Ibn Rusta, Al-Ya’qubiy, Ibn Xordadbex, Ibn Havkal, Yoqut al-Hamaviy hamda mahalliy allomalardan Beruniy va Zamaxshariy kabi mualliflar o‘z asarlarida bebaho ma’lumotlar qoldirganlar [1]. Fors tilidagi “Hudud al-alam” va Gardiziyning “Zayn ul-axbor” asarlarida Xorazm shaharlarining qo‘shni ko‘chmanchilar dunyosi va Yevropa xalqlari bilan aloqalari alohida tavsiflangan [2]. Umuman olganda, ushbu yozma manbalar Xorazmning o‘rta asrlarda xalqaro iqtisodiy ko‘prik vazifasini bajarganini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

IX–XII asrlarda Xorazm iqtisodiyotining asosini Buyuk Ipak yo‘lining uchta xalqaro tarmog‘i (Movarounnahr, Xuroson-Qoraqum va Volga bo‘yi-Sharqiy Yevropa yo‘nalishlari) tutashgan tranzit imkoniyatlari tashkil etgan. Sayyoh Ibn Fadlan (921–922-yy.) voha iqlimi va shaharlari haqida yozsa, Istaxriy xorazmliklarning uzoq o‘lkalarga sayohat qiluvchi savdogar xalq ekanligini, bu yerda paxta va jundan yuqori sifatli matolar to‘qilib, uzoq joylarga eksport qilinganini qayd etadi [3]. Ushbu manbag asosan, IX–XII asrlarda Xorazm Buyuk Ipak yo‘lining uchta yirik yo‘nalishi tutashgan juda muhim tranzit markazi bo‘lgan.

Ibn Fadlan va Istaxriy kabi sayyohlarning ma'lumotlari xorazmliklar nafaqat savdogar, balki paxta va jundan yuqori sifatli kiyim-kechaklar to‘qib, ularni uzoq o‘lkalarga sotgan mohir hunarmandlar bo‘lganini ham isbotlaydi.

Urbanizatsiyaning rivojlanishi natijasida X asr oxirida vohadagi qal’alar soni 32 taga yetgan bo‘lib, Urganch shahrida 160 ga yaqin ixtisoslashgan bozorlar faoliyat yuritgan [4]. Arxeologik qazishmalar natijalari yozma manbalarni to‘liq tasdiqlaydi. Xususan, Sadvar qal’asi rabodidan temirchilik sohasiga oid 5 ta yirik ishlab chiqarish o‘chog‘i, Jigarband qal’asi qatlamlaridan esa metall mehnat qurollari va qurol-aslahalar majmuasi topilgan [5]. Yozma manbalardagi ma’lumotlar arxeologik qazishmalar bilan to‘liq tasdiqlanadi. Sadvar rabodidan topilgan metallurgiya o‘choqlari va Jigarband qal’asidan chiqqan qurol-aslahalar majmuasi vohada temirchilik hamda metallga ishlov berish sanoati alohida yirik va mustaqil tarmoq sifatida shakllanganini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

Xorazm badiiy metallsozligi (zargarlik va kumushchilik) yuksak darajaga ko‘tarilganini Rossiya Davlat Ermitajida saqlanayotgan, XI asrning birinchi yarmiga oid Xorazm kumush patnisi yaqqol isbotlaydi [6]. Al-Xorazmiyning “Bilimlar kaliti” asarida harbiy toshotar manjanaq konstruksiyasidagi metall va yog‘och qismlarning berilishi ham voha temirchilik texnologiyalarining ilmiy-amaliy mukammalligidan dalolat beradi. Asarida harbiy toshotar mashina (manjanaq) qismlarining batafsil

tasvirlanishi Xorazm ustalarining nafaqat oddiy buyumlar, balki metall va yog‘ochdan murakkab harbiy texnikalarni yasay olgan muhandislar bo‘lganini isbotlaydi.

Anushtaginlar sulolasi davrida (1097–1231-yy.) davlat darajasida savdo xavfsizligini ta’minlovchi “yo‘l muhofizlari” (muhofizon-i turuq) joriy etilib, tujjorlarga imtiyozli “Musooda-noma”lar (ruxsatnomalar) ulashilgan [7]. Al-Maqdisiyning ma’lumotiga ko‘ra, Xorazmdan xalqaro bozorlarga 42 turdagi mahsulot (charm, murakkab kamonlar, yugan-suvliqlar, qulflar, alacha matolar) eksport qilingan. Xorazm savdogarlari Xazar hoqonligi poytaxti Itil shahrida 25 mink kishilik yirik mustamlakaga ega bo‘lib, hoqonlik gvardiyasining asosini tashkil qilgan [8].

Umuman olganda, Anushtaginlar davrida Xorazmshohlar davlati xalqaro savdoni rivojlantirish uchun yo‘llar xavfsizligini ta’minlash va savdogarlarga soliq imtiyozlari berish tizimini davlat darajasida yo‘lga qo‘ygan.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, IX–XIII asrlarda Xorazm nafaqat xalqaro karvon yo‘llari chorrahasidagi yirik tranzit mintaqa, balki o‘zining mustaqil va yuqori texnologiyali hunarmandchilik maktablariga (metallsozlik, kulolchilik, to‘qimachilik, ko‘nchilik) ega bo‘lgan yetakchi iqtisodiy markaz bo‘lgan. Yozma manbalar va arxeologik yodgorliklar (Sadvar, Jigarband, Urganch) ma’lumotlarining uzviy sintezi Xorazm hunarmandchiligi asrlar davomida barqaror va tizimli rivojlanish bosqichini bosib o‘tganligini ilmiy jihatdan isbotlaydi. IX–XIII asrlar boshlarida Xorazm vohasidagi iqtisodiy yuksalish, shaharsozlik ko‘rsatkichlari hamda xalqaro savdo tizimi dinamikasi yozma va moddiy manbalar sintezi orqali o‘zining to‘liq ilmiy tasdig‘ini topdi.

Istaxriy, Maqdisiy va Ibn Fadlan kabi mualliflarning ma’lumotlari Sadvar, Jigarband va Urganch yodgorliklaridan topilgan arxeologik artefaktlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘rta asrlar Xorazm davlati Buyuk Ipak yo‘lidagi shunchaki tranzit hudud emas, balki paxta, jun, charm va metallga ishlov berish bo‘yicha mustaqil ishlab chiqarish markazi bo‘lganini ko‘rsatadi. Vohaning xalqaro bozorlarga 42 turdagi tayyor mahsulot eksport qilishi, Itil shahrida 25 ming kishilik yirik savdo koloniyasiga egaligi hamda Anushtakinlar davrida “yo‘l muhofizlari” va “Musooda-noma” tizimi orqali savdo xavfsizligini davlat darajasida kafolatlashi mintaqani qudratli iqtisodiy subyektga aylantirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик (Таржима муаллифи Р.Т.Худайберганов). – Тошкент: «Фан», 2019. – Б. 140-143; Иакут ал-Хамави. Му’жам ал-булдан. МИТТ, т. 1, М.-Л., 1939. – С. 409-438.
2. Гардизи. Китаб зайн ал-ахбар. МИТТ, т. 1, М.-Л., 1939. – С. 228; Материалы по истории туркмен и Туркмении (МИТТ). Т.1. – М.-Л., 1939. – С. 202.
3. Путешествие Ибн-Фадлана на Волгу (Хорезм). (Перевод под ред. акад. И.Ю.Крачковского). – Л., 1939; Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент, 1964. – Б. 255.
4. Orazmuhammeova G.T. Города южного Туркменистана как центры ремесла и торговли (IX–XII вв.) // История и современность. №1. март. 2010. – С. 123–131.
5. Армарчук Е.А. Производственные печи на средневековом городище Садвар в Южном Хорезме. – С. 81–90; Вишневская Н.Ю. Ремесленные изделия Джигербента. – С. 111–112.
6. Сокровища Приобья. – СПб.: Формика, 1996. – С. 126–127.
7. Жувайний. Тарихи жаҳонгушой. – Б. 288; Кўйман. Муншаот мажмуаси. – Б. 554.
8. Машарipov O. Хоразм тарихидан саҳифалар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 22;